

**MAKKAJO'XORI PARVONASINING BIOEKOLOGIYASI VA  
TARQALISHI.**

*Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich, katta o'qituvchi*

*Norqulova Ma'mura Nuriddin qizi, talaba*

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada makkajo'xori o'simlining asosiy zararkunandalaridan biri bo'lgan makkajo'xori parvonasining bioekologiyasi hamda tarqalishi haqida haqida malumotlar keltirilgan. Makkajo'xori parvonasi keng tarqalgan tur bo'lib, u Yaqin Sharq mamlakatlari, Hindiston, Yaqin Osiyo, Misr, o'rta va janubiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida va O'zbekistonda ham uchraydi.

**KALIT SO'ZLAR:** Makkajo'xori, bioekologiya, tarqalishi, makkajo'xori parvonasi.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена информация о биоэкологии и распространении кукурузной моли, одного из основных вредителей кукурузы. Кукурузная совка - широко распространенный вид, встречающийся в странах Ближнего Востока, Индии, Ближней Азии, Египте, Центральной и Южной Европе, Северной Америке и Узбекистане.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Кукуруза, биоэкология, распространение, кукурузная моль.

**KIRISH:** Qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish sohasida katta yutuqlarga erishilganligiga qaramay hali ham hosilni zararkunanda va kasalliklar ta'sirida ko'p qismi nobud bo'lmokda. Makkajo'xori ekinlaridan olinadigan mahsulot to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinganligi uchun ham ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish iqtisodiy tejimli, atrof muhitga kam ta'sir qiladigan,

ekologik xavfsiz bo'lishi kerak. Shuning uchun ham ko'pchilik tadqiqotchilar sabzavot ekinlarini zararkunandalardan himoya qilishda tabiiy kushandalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi va shu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz sharoitida makkajo'xori ekinlarining asosiy zararkunandalaridan biri bo'lgan makkajo'xori parvonasi hisoblanadi.

Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia nubilalis* Hb.) O'rta Osiyo sharoitida uch turi ma'lum. Zararkunandaning barcha hayotiy ko'rsatkichlari aniqlanib, Vodiy sharoitlarida mavsumda 3 marta, Xorazm viloyati sharoitida esa to'liq 3 ta avlod berib rivojlanishi aniqlangan. Erkagi urg'ochisidan kichik 27-28 mm, urg'ovchisi 31-32 mm. Erkagining qanotlari umumiy qoramtir tusda. Old qanotlari sariq yoki och jigarrang, orqa qanotlarining o'rtasidan ko'ndalangiga yo'g'on oq chiziq o'tadi. Erkak va urg'ochi kapalaklar bir-biridan tashqi ko'rinishi bo'yicha farq qiladi. Tuxumi yassi va oval shaklda, kapalaklar ularni bir-biriga nisbatan cherepitsa kabi joylab, bargning ost qismiga 10-15 donadan to'p-to'p qilib qo'yadi.



**1-rasm. Makkajo'xori parvonasi (*Ostrinia nubilalis* Hb.)ning imagosi va zarari**

Kapalak qo'shimcha oziqlanadi va voyaga yetgach urchib, tuxum qo'yishga kirishadi. Tuxumini begona o'tlardan qora qiyoy, tovuq tariq va boshqalarga,

madaniylardan makkajo'xori, tariq, kanop va boshqalarni barg orqasiga qo'yadi. Kapalaklar kunduzi salqin joylarda berkinib kechasi faol xayot kechiradi. Tuxumdan chiqqan qurtlar avval to'da bo'lib xayot kechiradi.

Tarqalishi. Makkajo'xori parvonasi keng tarqalgan tur bo'lib, u Yaqin Sharq mamlakatlari, Hindiston, Yaqin Osiyo, Misr, o'rta va janubiy Yevropa, Shimoliy Amerika va boshqa mamlakatlarda uchraydi.

**Xulosa.** Makkajo'xori o'simligining asosiy zararkunandasii hisoblangan makkajo'xori parvonasi tarqalishiga qarshi uz voqtida agrotexnik hamda profilaktik kurash choralari qilish samarali natija beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldashev X va boshqalar - Makkajo'xori yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 1986
2. Boboev F - Takroriy makkajo'xori yetishtirish. O'zbekiston qishloq xo'jalik jurnali 2012. № 6
3. Alimuxammedov S.N., Xo'jaev Sh.T. - "G'o'zani zararkunandalardan himoya qilish" Toshkent 1991 yil Mexnat
4. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2019.